QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

## 2022- YIL YANVAR-DEKABR OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz

*2022- yil yanvar-dekabr oylarida*




Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpoq‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 17794,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,6 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 15398,2 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 86,5 % ni tashkil etdi.







**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 13,8 % ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 0,8 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash – 0,5 % ga oshganidir. Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 21,8 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.



# Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



*2022- yil yanvar-dekabr oylarida*

O‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

**Ohah tosh**




**Tabiiy gaz**




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 171,1 | 231,1 | 60,0 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1947,8 | 1312,3 | -635,5 |

**Gaz kondensati**




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Gaz kondensati, ming t. | 89,3 | 79,1 | - 10,2 |

*2022- yil yanvar- dekabr oylarida*







2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15398,2 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,5 % ini tashkil etdi.




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali –58,7 % (62,0 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 5,3 % (4,7 %) va quyi texnologiyalisi – 35,9 %(32,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 59,2 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 17,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,6 %) tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Aroq**




**Paxta chigiti**




**Sement**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Kalava ip**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 3,9 ming tonna tozalangan guruch (2021- yilning mos davriga nisbatan 14,8 % ga), 288,9 ming tonna portlandsement (6,4 %), 37,4 ming tonna paxta tolasi (4,1 %), 53,1 ming tonna paxta chigiti (4,1 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 4,6 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (33,6 %), 107,2 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (14,6 %), 3748,4 ming litr aroq (6,2 %), 16,1 ming tonna kalava ip (1,2 %), ishlab chiqarilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Aroq, ming litr 100 % li spirt | 3994,5 | 3748,4 | -246,1 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t | 6937,9 | 4604,3 | - 2333,6 |
| Paxta tolasi, t | 35948,2 | 37421,0 | 1472,8 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 125518,3 | 107211,4 | - 18306,9 |
| Polietilen, ming t. | 304,9 | 295,8 | - 9,1 |
| Polipropilen, ming t. | 87,1 | 83,7 | -3,4 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 61,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 58,5 % ni, fizik hajm indeksi 91,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9014,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 100,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 9,2 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2522,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 107,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 7,1 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2282,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 13,6 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 600,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 114,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 238,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 84,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 111,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 165,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Mebellar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 110,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 113,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 127,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 131,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 106,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 132,5 %.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 89,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 77,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2122,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,9 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. so‘m




yanvar-dekabr
FHI, % da




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln. kVt.s | 5232,9 | 5373,6 | 34,6 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 62,9 | 53,4 | - 9,4 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 120,7 mlrd. so‘mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

yanvar-dekabr
mlrd. so‘m




yanvar-dekabr
FHI, % da




## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 7385,5 | 8608,6 | 1223,1 |
| Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha, xizmatlar, mln. so‘m | 16930,4 | 18228,7 | 1298,3 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 16,6 % va shahar xo‘jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chinqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar 7,7 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3319,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylari mos davriga nisbatan 109,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 18,7 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari











Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (109,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Amudaryo (140,8 %),Ellikqal’a (132,5 %),Shumanay (126,3 %), Bo‘zatov (122,8 %), Chimboy (122,3 %), Qorao‘zak (120,8 %), Mo‘ynoq (120,6 %), Xo‘jayli (115,5 %), Nukus (112,8 %) hamda Beruniy (109,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati ko‘rsatkich Nukus shahri (91,2 %) hamda Taxtako‘pir (89,8 %) tumanida qayd etildi.

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 64,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 35,6 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iste’mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 60,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 39,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘sish sur’ati 112,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o‘sish sur’ati 105,1 % ni tashkil etdi.











## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib 19,7 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 11,6 % ni, Ellikqal’a tumani 10,8 % ni, To‘rtko‘l 8,7 % ni, Amudaryo tumani 8,0 % ni, Beruniy tumani 6,9 % ni, Xo‘jayli tumani 6,8 % ni va Chimboy tumani 5,8 % ni tashkil etdi.









## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib 20,6 % ni, shuningdek, Nukus shahri 16,7 % ni, To‘rtko‘l tumani 9,0 % ni, Xo‘jayli tumani 8,0 % ni, Amudaryo tumani 7,3 % ni hamda Chimboy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.




1199,2 mlrd. so‘m
2020- yil yanvar-dekabr

1162,6 mlrd. so‘m
2021- yil yanvar-dekabr

1183,0 mlrd. so‘m
2022- yil yanvar-dekabr




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,3 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 16,1 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,5 % ni, Amudaryo tumani 8,3 % ni Beruniy tumani 7,5 % ni hamda Xo‘jayli tumani 6,1 % ni tashkil etdi.

1605,0 mlrd. so‘m
2020- yil yanvar-dekabr

1783,0 mlrd. so‘m
2021- yil yanvar-dekabr

2136,2 mlrd. so‘m
2022- yil yanvar-dekabr









## Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 53,4 %), Taxiatosh (12,2 %), Qo‘ng‘irot (5,2 %), To‘rtko‘l (3,9 %), Amudaryo (3,4 %) va Beruniy (2,9 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

2020- yil
13981,3 mlrd. so‘m

2021- yil
16630,4, mlrd. so‘m

2022- yil
17794,6 mlrd. so‘m



2020- yil 102,5%

2021- yil 107,4 %

2022- yil 100,6 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (28654,8 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 28709,1 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (9067,7) ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.











## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1691,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 5069,6 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 2841,6 ming so‘mni, Ellikqal'a tumanida 2157,2 ming so‘mni, Nukus shahrida 1967,5 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 1786,0 ming so‘mni tashkil etdi.




2020- yil 1467,4 ming. so‘m

2021- yil 1521,4 ming. so‘m

2022- yil 1691,4 ming. so‘m



2020- yil 112,0 %

2021- yil 103,9 %

2022- yil 108,0 %

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3744,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

2020- yil
3457,4 mlrd. so‘m

2021- yil
3675,4 mlrd. so‘m

2022- yil
3744,6 mlrd. so‘m



2020- yil
24,7 %

2021- yil
22,1 %

2022- yil
21,0 %



## Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3633 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2028 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 55,9 %) Nukus shahriga 722 tasi (19,9 %), To'rtko'l 373 tasi (10,3 %), Amudaryo 312 tasi (8,6 %), Beruniy 311 tasi (8,6 %) Ellikqal'a 310 tasi (8,5 %) tumanlariga to'gri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan

801 dona
2020- yil yanvar-dekabr

789 dona
2021- yil yanvar-dekabr

853 dona
2022- yil yanvar-dekabr




Jami faoliyat yuritayotgan

2918 dona
2021- yil 1-yanvar holatiga

3211 dona
2022- yil 1-yanvar holatiga

3633 dona
2023- yil 1-yanvar holatiga



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpogʻiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 44 ta loyiha boʻyicha 612,1 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 12,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 88 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 37,6 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining kamayganligi kuzatildi

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni**, *birlikda* | 59 | 44 |
| **Korxonalar soni**, *birlikda* | 49 | 26 |
| **Ishlab chiqarish hajmi**, *mlrd. soʻm* | 1553,9 | 612,1 |
| **Yaratilgan yangi ish oʻrinlari**, *birlikda* | 234 | 88 |